



Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyachining o'rni

**Samarqand viloyati PYMO‘MM Maktabgacha boshlang‘ich va maxsus
ta’lim metodikalar kafedrasи o‘qituvchisi Suvanqulov Umidjon**

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyachining o'rni haqida umumiy ma'lumot yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, TMM, jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tarbiya.

Роль воспитателя в развитии речевой деятельности дошкольников

Аннотация: В данной научной статье освещены общие сведения о роли воспитателя в развитии речевой деятельности детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: система образования, ТММ, физическое, умственное, нравственное, эстетическое воспитание.

**The role of the educator in the development of speech activity of
preschool children**

Abstract: In this scientific article, general information about the role of the educator in the development of speech activity of children of preschool age is highlighted.

Key words: educational system, TMM, physical, mental, moral, aesthetic education.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'tarilgan ulug‘vor vazifalaridan biridir. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta'minlash, erta yoshlikdan o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qishga tayyyorlab borishdan iborat. TMM ning asosiy maqsadi bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash barkamol rivojlangan mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish va qobiliyatlarni ochib berish tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bundan tashqari Prezidentimiz bu haqda shunday degan edi: "Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb -hunarlargi, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat"

Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarni har tomonlama, ya’ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek, maqsadni o‘z oldiga qo‘yan. Bu



maqsad esa, bolalarga ona tilini o‘rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog‘chada og‘zaki nutqni o‘stirish natijasida bola aqlan rivojlanib, uning umumiy madaniy saviyasi oshadi. U tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellekt, ya’ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o‘sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo‘lmay, balki nutqining rivojlanishi bilan paydo bo‘ladi va takomillashadi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to‘g‘ri gapirishga (so‘zlashishga) o‘rgatib borilsa, u vaqtida bunday bola meyoriy holatda rivojlanadi, ya’n i avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyatni paydo bo‘ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko‘pgina tajribalar shuni ko‘rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to‘liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko‘maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o‘rgatish bilan bir vaqtida, uni maktabda muvaffaqiyatlari o‘qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o‘rgatiladi. Bolalar bog‘chasining barcha tarbiyaviy-ta’limiy ishlarida bolalarga ona tilini o‘rgatish orqali ularning nutqi o‘stiriladi. Ayniqsa, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida har bir bolaning nutqiniostirish bo‘yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg‘ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi.

So‘z boyligi barcha mashg‘ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o‘zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqaliifodalash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo‘l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin hayotga tatbiq etishga ham o‘rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbai va vositasi hamdir.

Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg‘ularni o‘stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy t omondan tarbiyalash vositasidir.



Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning, voqeа va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o‘xshash va farqli tomonlarini aytishga o‘rgana di.

Ona tili orqali bolalar o‘z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og‘zakijodiyoti, badiiy adabiyot, san'at bilan tanishadilar.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqinio‘stirishga doir mashg‘ulotlarni didaktik o‘yinlar, ermak o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari shaklida o‘tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko‘ngilochar tusga, albatta, ta’lim tusiga ega bo‘lishi lozim, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqinio‘stirishemotsional tusga ega bo‘lishi lozim. Bunda ko‘rgazmaviylik, o‘yin usullari va didaktik o‘yinlarni keng qo‘llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqinio‘stirishga doir mashg‘ulotlar muayyan vazifaga ega -ya’ni, u bolalarni mакtabda o‘qishga tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Mashg‘ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e’tiborli bo‘lish, pedagog topshirig‘ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr yurita bilish, tengdoshining javobiga baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

Shunday qilib, ona tili maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ruhiy jihatdan ostirishda, ularning madaniy saviyasini oshirishda, tevarak-atrofdagi voqeа-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib olishlarida, mакtabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun zamin yaratishda, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o‘rgatishda, aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, dunyoni, borliqni bilib olishda, xalqimiz madaniy merosini o‘rganishlarida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. - 2022. - T. 2. - №. 2. - C. 231-235.
2. Ergasheva G. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2021. - Т. 5. - №. 5.
3. Ergasheva G. B. ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSION PEDAGOGIK



TEXNOLOGIYALARING O'RNI //Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 7. - C. 969-974.

4. Ergasheva G. B., Tohirova S. MUSTAQILLIK NE'MATIGA SHUKRONA QILISH VA UNING MUSTAHKAMLIGINI SHAQLASH //Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 7. - C. 1196-1200.

5. Ergasheva G. НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕТОДОВ И СРЕДСТВ ОБУЧЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.

6. Ergasheva G. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI TO'G'RISIDA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.

7. Ergasheva G. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). - 2020. - Т. 1. - №. 1.

8. Эргашева Г. Б., Раджабова И. Х. ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ЗАНЯТИЯМ МАТЕМАТИКОЙ В ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ //Проблемы педагогики. - 2020. - №. 6 (51).

9. Эргашева Г. Б., Хожиева М. У. Одаренность детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. - 2020. - №. 1-5. - С. 31.

10. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. - 2020. - №. 1 (46).

11. Эргашева Г. Б., Ахмедова Н. М. Беседа как метод формирования диалогической речи для детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. - 2019. - №. 11-2 (98). - С. 76-77.

12. Эргашева Г. Б. Использование интегрированных технологий в высшем образовании //Вестник магистратуры. - 2019. - №. 4-3 (91). - С. 74-75.

13. Алимов А. Т., Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Особенности применения метода "изучение случаев" в обучении //Молодой ученый. - 2016. - №. 10. - С. 1163-1165.

14. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся //Молодой ученый. - 2014. - №. 8. - С. 852-854.